

**O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR  
TADQIQOTLAR-Jurnali  
2-son. 3-qism. Mart-2026**

**“Boburnoma” – jahon adabiyotining betakror yodgorligi**

**Xodjayeva D.Yu.,**

**Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Ma’naviyat  
asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi**

**Доцент, кандидат философских наук, кафедра «Основы духовности и  
правового воспитания» Национального педагогического университета им.  
Низами в Узбекистане.**

**Associate Professor, Candidate of Philosophy, Department of “Fundamentals of  
Spirituality and Legal Education” of the Nizami National Pedagogical University  
of Uzbekistan**

**Annotatsiya:** Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari va unda ko‘tarilgan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-ilmiiy va harbiy masalalar manbalarga tayangan holda yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** davlatni boshqarish, siyosat, qo‘shinni boshqarish, lashkarlar tarbiyasi, ma’naviy- axloqiy fazilatlar, shijoat, jasorat, adolatlilik, vatanparvarlik.

**Аннотация:** В статье на основе источников освещен труд Захириддина Мухаммада Бабура «Бабурнома» и затронутые в нем общественно-политические, историко-научные и военные вопросы.

**Ключевые слова:** государственное управление, политика, управление армией, подготовка воинов, духовно-нравственные качества, мужество, отвага, справедливость, патриотизм.

**Abstract:** In this article Zahiriddin Muhammad Babur’s work “Babumoma” and the social- political, historical-scientific and military issues raised in it are highlighted based on the sources.

**Keywords:** state management, politics, army management, training of soldiers, spiritual and moral qualities, courage, justice, patriotism.

# O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 2-son. 3-qism. Mart-2026

**Kirish.** “Boburnoma” – dunyo manbashunosligidagi muhim va noyob manba bo‘lib, o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar hisoblanadi. U buyuk shoir, davlat arbobi va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan taxminan 1518/19-1530-yillarda eski o‘zbek tilida yozilgan. Unda 1494-1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. “Boburnoma” o‘zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko‘ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494-1504), Afg‘oniston (1504-1524) va Hindiston (1524-1530) dagi hukmdorlik davriga bo‘linadi. Birinchi qismda Boburning otasi – temuriylarning Farg‘ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461-94) xususida hamda Boburning Farg‘ona taxtiga o‘ltirishi (1494-yil iyun), ammo temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o‘z ulusidan mahrum bo‘lishi (XV-asrning 90-yillari), Samarqand uchun Shayboniylar qarshi olib borgan jang-u jadallari (1497-1501) ning behuda ketishi, va nihoyat, toj-u taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog‘lari orqali taxminan 250 navkar bilan Afg‘onistonga yuz tutishi (1504) haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan.

Ikkinchi qismda Boburning Kobulni zabt etgani, so‘ng u yerda mustaqil davlat tuzgani (1508), Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishg‘ol qilgani (1511) lekin shayboniylar (Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton) dan yengilib (1512), Kobulga qaytgani keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik ko‘ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan.

Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyni mag‘lub etib (Panipat janglari), Shimoliy Hindistonni bosib olgani (1526) va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma‘lumotlardan iborat. Agar “Boburnoma” yozilmasa, bizning Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro hayotlari, faoliyatlari va ijodlari, xususan, shaxslari haqidagi tasavvurlarimiz anchayin yuzaki bo‘lib qolgan bo‘lard.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** “Boburnoma”da keltirilgan barcha ma‘lumotlar, xususan Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag‘oniyon va Shimoliy Afg‘onistonning XV asrning 80-90-yillari va XVI arning birinchi choragidagi siyosiy ahvoliga doir xabarlar o‘zining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, asar muallifining muayyan tarixiy voqea haqida hamda o‘zaro dushmanlik qilgan temuriylar - Umarshayx, Sulton Ahmad,

**O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR  
TADQIQOTLAR-Jurnali  
2-son. 3-qism. Mart-2026**

Sulton Mahmud, Boysung'ur Mirzo, Sulton Husayn va boshqalarning xulq-atvori, tabiati xususida bildirgan fikr-mulohazalari bilan ham ahamiyatlidir. [1]

“Boburnoma” undagi tarixiy shaxslarning ko‘pligi, sulolalar, saltanatlar taraqqiysi va tanazzulini yorqin namoyon etuvchi badiiy-ilmiy hujjat, urushlar tarixi, jang qurol-yarog‘lari, jangga saf tortish va jang usullari, davlatlararo va shohlararo munosabatlar yilnomasi sifatida qimmatli tarixiy manbadir. Ayniqsa, janglarning bu asardagi talqini kishini hayratga soladi. Jang uchun sabab va bahonalar, janggoh tanlash va joy jug‘rofiyasiga ko‘ra, quyosh nuri tushishiga ko‘ra harbiy saflarga joy tanlash, qo‘shin qismlarini harbiy amaliyotda muvofiqlashtirish usullari, harbiy asbob-uskuna, jangchi va ot-ulovlar uchun sovut-u zirhlarning ahamiyati, shaharga kirish va qal’ani zabt etish chora-tadbirlari shunchalik mukammal berilganki, go‘yo bu asar shohlarga o‘ziga xos qo‘llanma vazifasini ham bajara olardi.

“Boburnoma” bizga O‘rta Osiyo va atrofdagi davlatlarda ishlatilgan harbiy qurollar, mudofaa vositalari, qal’aga chiqish asbob-uskunalarining o‘ziga xos qomusi sifatida ham tarixiy-ma’rifiy ahamiyatga molikdir. “Boburnoma”da ijtimoiy-tabiiy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din ta’limoti, tilshunoslik, tabiatshunoslik, ma’danshunoslik, dehqonchilik, bog‘dorchilikka oid aniq va hanuzgacha o‘z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan ma’lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Asarda bevosita Boburning o‘zi lashkarboshi sifatida qatnashgan bir necha katta-kichik jang manzaralari mahorat bilan berilgan. O‘sha davrdagi qo‘shin tuzilishi, urush olib borish, jang usullari, qamal holatlari, qurol-yarog‘ turlari, qo‘rg‘onbuzar qurilmalar bilan bir qatorda asarda ko‘plab harbiy-ma’muriy istilohlar ham uchraydi. Shuningdek, “Boburnoma”da temuriylar qo‘shinining tuzilishi, harbiy san’ati haqida ham noyob ma’lumotlar bor. Bundan tashqari, Movarounnahr, Afg‘oniston, Xuroson va Hindiston o‘tmishi va zamonaviy holati, xalqlari, qabilalari, ularning tili, madaniyati, kasb-hunari, urf-odatlar, rasm-rusumlari, an’anaviy tadbir-marosimlari, shuningdek o‘sha davr jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalarga tegishli ma’lumotlar bayon etiladi. Ayniqsa, Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Kobul, Hirot, Agra kabi yirik shahar-viloyatlarning jug‘rofiy-ma’muriy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, qishloq xo‘jaligi, daryo va suv havzalari, chor-adirlari, tog‘- sahrolari, bog‘-u rog‘lari, tabiati, iqlimi, hayvonot va o‘simliklar dunyosi, tabiiy boyliklari haqida mufassal ma’lumotlar beriladi.

## O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 2-son. 3-qism. Mart-2026

**Tahlil va natijalar.** Xususan, XV-XVI asrlarda Turkiston viloyatida yashagan qora qo'yluq qabilasining hamda Movarounnahrda turk-mo'g'ul qabilalarining urf-odatları, harbiy mahoratlari haqidagi ma'lumotlar, ayniqsa ilmiy jihatdan g'oyatda qimmatli bo'lib, ular o'zbek, qozoq, qirg'iz kabi turkiy xalqlar tarixini o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. "Boburnoma"da Farg'ona, Samarqand shaharlari va shu nomdagi viloyatlar, Ohangaron vodiysi, O'ratepa va uning atrofi, Mascho, Hisor, Chag'oniyon, Badaxshon, Kobul viloyati va boshqa joylar geografik jihatdan g'oyatda qiziqarli tavsif qilingan bo'lib, muallif o'zi yurgan yo'llar, o'zi bo'lgan shahar va qishloqlarni g'oyat darajada aniq tasvirlangan. Buyuk vatandoshimiz Bobur o'zining "Boburnoma"sida "Afg'oniston" degan nomni boshqacha ma'noda qo'llagan. Uning Afg'onistoni hozirgi Afg'onistonga to'g'ri kelmaydi, chunki XVI asrda Afg'oniston davlati hozirgi chegaralarda tashkil topmagan edi. Hindikush tog'larining shimoliy tomonini Badaxshon, Andarob, Qunduz viloyatlari, g'arb tomonini esa G'ur va Xuroson deydi. Hindikushning janub tomoninigina Kobul viloyati deb ataydi. Kobul viloyatining bir qismigina Afg'oniston deyilgan.[2]

"Boburnoma"da keltirilgan faktlarga ko'ra, Afg'oniston to'rtinchi va uchinchi iqlimlarda joylashgan, ma'mura (yerning quruqlik qismi)ning o'rtasida joylashgan. Xaritaga qaralsa ham bu holat isbotlanadi: Kobuldan ekvatorgacha qancha masofa bo'lsa, Kobuldan Shimoliy Muz okeanigacha ham o'shanchadir. Kobuldan uzoq Rum (Kichik Osiyo) bilan Chin (Xitoy) mamlakatigacha bo'lgan masofalar ham taxminan baravar keladi, ya'ni Kobul shahri Sharq bilan G'arb va Shimol bilan Janub o'rtalig'ida joylashgan. Ayniqsa, "Boburnoma"da Bomiyon vodiysi haqida keltirilgan tarixiy-geografik ma'lumotlar qimmatlidir. Unda ta'kidlanishicha, "Bomiyon vodiysi qadim zamonlarda, bundan ikki ming yillar muqaddam azim bir shahar, savdo-sotiq va din markazi bo'lgan. Shimoldan janubga – Rum, Marv, Buxoro, Samarqand va Xitoydan Kobul va Hindistonga boradigan asosiy savdo yo'li shu vodiyyar o'tgan. Kushon podsholari davrida bu joy buddizm dinining markazi bo'lgan. Bu yerga butun Sharqdan yuz minglab dindorlar ziyoratga kelishgan.[3]

Milodning V-VI asrlarida Bomiyonda bir milliondan ortiq kishi yashagan. Rivoyat qilinishicha, shahar nihoyat darajada katta bo'lgan, hayot qaynab turgan, ko'chada adashib qolgan bolani qariganidan keyingina topib olishar ekanlar. Bomiyon vodiysida Darai Fulodi, Surxdara, Shahri Zaxxob kabi tarixiy joylar ko'p. Shular qatorida yana bir joy borki, ko'rgan odamning yuragi jiz etadi. Bu joy Chingizxon davriga mansub

# O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 2-son. 3-qism. Mart-2026

bo'lib, nomi - Shahri G'ulg'uladir. Xorazmlik shahzoda Jaloliddin Manguberdi o'z yurtm: Chingizxondan himoya qilib, qahramonona kurashgani ma'lum. Uning Afg'oniston orqali Hind daryosiga chekingani haqida ham o'qiganmiz. Ammo Jaloliddinning Bomiya turganligi to'g'risida yetarlicha aniq ma'lumotlar yo'q. Bomiya vodiysining o'rtasida bir qal'a bor, uning balandligi 150 metrcha keladi. Shu yer Shahri G'ulg'uladir. Jaloliddin shu yerga kelib o'rnatilgan, Chingizxonga qarshi kuch to'play boshlagan. Ammo yovuz Chingizxon Jaloliddinni qo'lga tushirish payida uning izidan quvib kelavergan, qal'ani bir necha kun qamal qilgan. Jaloliddinning kuchi kundun-kunga qirilib, oziq-ovqat va suv tugagan. Ammo Jaloliddin taslim bo'lishni xayoliga ham keltirmagan. Rivoyatga ko'ra, Jaloliddinning go'zal qizi shunday ish ko'rsatgan. Uning go'zalligi yov lashkariga mashhur ekan - Chingizxonning bir nevarasi qizga shaydo bo'lgan. Jaloliddin juda og'ir ahvolda qolgandan keyin qiz otanasini qutqarish maqsadida bir xiyla qilgan: "yigitga tegaman", deb rozilik bergan. Shundan keyin urush to'xtatilgan. Qal'ani qurshab turgan mo'g'ullar tarqalgan. Qiz "o'z ixtiyori" bilan kuyovning o'toviga ko'chib borgan. Ertalab qarashsa kuyov qiymalab tashlangan emish. Yovdan alamini olganidan keyin qiz o'zini ham o'ldirgan. Mo'g'ullar darhol qal'aga yugurishgan. Hayhot, u yerda hech kim yo'q ekan: Jaloliddin yarim kechadayoq janubga, G'azni tomonga ravona bo'lgan". Umuman, Bomiya nafaqat Afg'oniston tarixida, balki insoniyat tarixida ne-ne tantanalar, ne-ne fojialar shohidi bo'lgan vodiidir.[4]

**Xulosa va takliflar.** "Boburnoma" XVI asrdan boshlab hozirgacha dunyoning ko'pgina tillariga bir necha marta tarjima qilindi, sharh-izohlar bilan nashr etildi. Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o'nlab mamlakat olimlarining ilmiy tadqiqotlarida "Boburnoma" ning insoniyat yaratgan o'lmas obidalar qatorida alohida o'rinda turishi ta'kidlanadi.

"Boburnoma" 1586-yilda fors tiliga, undan parchalar Vitsen tomonidan 1705-yilda golland tiliga, A.Keyzer tomonidan qisqartirilgan holda 1828-yilda nemis tiliga, Pave de Kurteyl tomonidan 1871- yilda to'la holda fransuz tiliga tarjima qilingan. "Boburnoma"ning jahonga mashhur bo'lishida, asosan ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo'ldi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to'liq nashrini ingliz tilida 1826-yilda J.Leyden va V.Erskin amalga oshirdi. F.Talbot esa mazkur nashr asosida 2 marta (1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921-yilda

**O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR  
TADQIQOTLAR-Jurnali  
2-son. 3-qism. Mart-2026**

ingliz sharqshunosi A.Beverij “Bobumoma”ni mustaqil suratda asl nusxadan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyaning o‘zida “Boburnoma” tarjimalari 9 marta nashr etildi.

Xullas, “Boburnoma” va unda ilgari surilgan umuminsoniy g‘oyalar nafaqat buyuk ajdodimiz Bobur yashagan davr uchun, balki hozir ham o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Shu bois, undan Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlashda foydalanish maqsadga muvofiq.

**Adabiyotlar:**

1. Bobur Z.M. Boburnoma. - T.: Yulduzcha, 1989.
2. Zahiriddin Muhammad Bobir. Boburnoma. - T.: O‘zSSR FA, 1960.
3. SharmaL.P. Boburiylar saltanati. - T.: Ma’naviyat, 1998.
4. Gulbadan Begim. Xumoyunnoma. — T., 1959.